

## MINTAQANING QAYTA ISHLASH KORXONALARI TIZIMIDA KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING TASHKILY BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

*Zakimov Aybek Muratbayevich*

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD*

*+99893 485 89 89*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligi kooperatsiyaning afzalliklari yoritib berilgan, respublikamizda ushbu shaklini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar bayon etilgan hamda milliy va xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda kooperatsiyani rivojlantirishning mulkiy huquqlar hamda transaksiya xarajatlari nuqtayi nazardan institutsional yondoshuvi keltirilgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi kooperatsiyaning yangi modellarini tashkil etish borasida ilmiy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasi, institutsional yondashuv, tranzaksiya xarajatlari, mulk huquqi, rasmiy va norasmiy institutlar

### I. KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida kooperatsiyani rivojlantirishda har-bir tarmoq, xususiyl holatda qizilmiya yetishtirish va qayta ishlash tizimida ham kooperatsiyaning turli xil modellarini ularning joylashuvi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi xududlarining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunga misol qilib iqtisodchi olim O. Jumayev tomonidan bajarilgan dissertatsiya ishida meva-sabzavotchilik majmuida kooperativlarni shakllantirish modellarini tavsiya etilganligini qayd etish mumkin. Bunda u 1-model sifatida qayta ishlovchi kooperativlarni shakllantirish 2-modelda ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarning o‘zaro teng huquqlilik asosida iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish asosida va 3- modelda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning qayta ishlash va barcha infratuzilmalarning ixtiyoriy birlashuviasosida kooperatsiya jarayonlarini tashkil etishni taklif etgan. Lekin O. Jumayev tomonidan taklif etilgan modellar faqat uzumchilik va uni qayta ishlash tizimi doirasida taklif etilgan bo‘lib unda respublikamizda uzum yetishtirishga ixtisoslashgan xududlar va ulardagi o‘ziga xoslik jihatlari, misol uchun qayta ishlash korxonalarining mavjudligi, ishlab chiqarish infratuzilmalari bilan ta‘minlanganlik darajasi va axborot kommunikatsiya tizimlarining mavjudligi kabi holatlar hisobga olinmagan. Bundan tashqari qishloq xo‘jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha iqtisodchi olim A. Abdullayev tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ham asosan respublikamiz paxtachilik va meva-sabzavotchilik majmui misolida olib borilgan. Tadqiqot ishida qishloq xo‘jaligida kooperatsiyani tashkil etishning vertikal usulini joriy etishga asosiy e‘tibor qaratilgan. Bunga misol qilib olim tomonidan infratuzilma subyektlari va fermer xo‘jaliklari hamkorligida kooperatsiyaga asoslangan kooperativ korxonalar faoliyatining namunaviy tuzilmasini keltirish mumkin.

## II. ADABIYOTLAR TAHLILI

Kooperatsiyaning fundamental nazariy va uslubiy asoslari bir qator xorijiy olimlar xususan U.King, Ye. Norson, R. Ouen, F. Rayffayzen, A. Sapiro, Ch.Furye va boshqa chet el olimlarning ishlarida aks ettirilgan. Kooperatsiya nazariyasi sohasidagi fanni rivojlantirishda rus klassik merosiga kirgan A.V. Chayanov, M.N. Tugan-Baranovskiy, N.P. Makarov, N.D. Kondratyev, I.V. Yemelyanov va boshqa olimlar katta hissa qo'shgan va boshqa olimlar qishloq xo'jaligi kooperatsiyasining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga bag'ishlangan[8].

O'zbekistonda turli sohalarda kooperatsiyani rivojlantirishga Q.A.Choriyev, B.B.Berkinov, Sh.Ergashxodjayeva, A.Madaliyeva, M.Aynaqulov, A.Xurramova, R.X.Tashmatov, A.J.Abdulloyev va boshqa olimlarning ishlarida bayon etilgan[3].

So'nggi yillarda institutsional tahlilning turli vositalaridan faolroq foydalanilishiga qaramay, kooperativlar faoliyatini o'rganish ko'proq an'anaviy yondashuvga asoslanadi. Ushbu tadqiqotlarni tizimli deb bo'lmaydi, chunki norasmiy institutlarning kooperativ tashkilotlar faoliyatiga ta'sirini hisobga olmaydi. Qishloq xo'jaligi kooperativlarida samarali mulkchilik tuzilmasini shakllantirish masalalari, shuningdek, rivojlangan bozor muhitiga mos strategiya va tashkiliy modellarni tanlash muammolari kam o'rganilgan bo'lib qolmoqda.

## III. TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida dialektik yondashuv, abstrakt fikrlash, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish usullaridan foydalanilgan. Metodologik jihatdan statistika idoralari bugungi kunda fermer xo'jaliklari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarning statistik tahlilini 1-FX shakli (yilda 2-marta) "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot", 1-DX shakli (yilda 2-marta) "Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari faoliyati to'g'risida hisobot", 1-QX shakli (choraklik) "Qishloq xo'jaligi faoliyati to'g'risida hisobot"lar asosida shakllantirib boradilar. Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar toifasi tarkibida mikrofirma va kichik korxonalar ma'lumotlari ham baholash yo'li bilan hisobga olingan.

## IV. TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligi kooperativlarini vertikal usuliga asosiy urg'u berilgan. Bunda tor yo'nalishda ya'ni bir mahsulot turini yetishtirish va qayta ishlash tizimida gorizantal kooperatsiyani rivojlantirish masalalari tadqiqotchil olimlar e'tiboridan birmuncha chetda qolgan deyish mumkin. Albatta iqtisodiyot tarmoqlarida kooperatsiyaning ko'plab turlari mavjud bo'lib, ularni tashkil etishda qayd etilganidek tarmoq va xududlarning o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi. Fikrimizcha ushbu jarayonda to'g'ri va pragmatik yondashuv asosida tashkil etilgan kooperativlar kutilgan ijtimoiy-iqtisodiy samarani beradi.

Yakuniy iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi kooperativlar, guruhi bo'lib u o'z navbtida moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi va istemol tovarlari ishlab chiqaruvchi kooperativlarga bo'linadi. Moliyaviy kooperativlar pul kredit va sug'urta kooperativlaridan iborat bo'lsa iste'mol kooperativlari o'z ishlab chiqarishiga ega bo'lmagan va ega bo'lgan kooperativlardan iborat bo'ladi. Integratsion asosda tashkil etiladigan kooperativlarintegratsiya munosabatlarini cheklovchiva rivojlantiruvchi kooperativlardan iborat bo'ladi. Ishlab chiqaruvchi kooperativlarga mehnat vositalaridan, mehnat va mehnat predmetlaridan va har-ikkala holatlarni birgalikda amalga oshiruvchi kooperativlardan iborat bo'ladi. Amalga oshirilgan nazariy tahlil va o'rganilan manbalardan qisqa xulosa qilib aytish mumkinki qishloq xo'jaligi va uning barcha tarmoqlarida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish va kooperativlarni tashkil etishda birinchi navbatda uni tashkil etish tamoyillariga qat'iy amal qilish, mamlakatimiz va xorijiy tajribalarga tayanish, uning ilmiy va uslubiy yondashuv va asoslariga qat'iy rioya qilish va albatta agrar soha tarmoqlari va mamlakatimiz xududlarining o'ziga xoslik jihatlarini hisobga olish zarur bo'ladi[4].

Agrosanoat majmuida kooperatsiya bu qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish va iste'molchilarga tayyor maxsulot sifatida yetkazib berish asosida o'z daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan mustaqil xo'jalik subektlarining o'zaro kelishilgan va erkin holdagi birlashmasi bo'lib, ular o'zaro kooperatsiya jarayonlarini tashkil qiladi

Bundan tashqari kooperativlar hozirgi kunda respublikamizda fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatidagi tashkiliy-iqtisodiy va huquqimiy xarakterdagi bir qator muammolarni ijobiy hal etishda muhim o'rin egallaydi.

Hoziri vaktida fermer xo'jaliklari o'z muammolarining ayrimlarini o'z kuch va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda boshqalarini esa kooperativlar yordamida hal etishlari mumkin ekan. Jumladan:

- tashkiliy - ishlab chiqarishni tashkil qilish, yetishtiriladigan maxsulot turlarini erkin tanlashdagi chegaralashlar. Kompyuter programmasi orqali ekin turlari, hosildorlik, daromad, rentabellik bo'yicha variantlarni belgilab olish;

- boshqarish - boshqarishdagi erkinlikni yetishmasligi, yuqori tashkilotlarning ishlab chiqarish texnologiyasiga, fermerning moliyaviy ishlariga ortiqcha aralashuvi, uning boshqarish faoliyatini ortiqcha reglamentlashtirish (chegaralash);

- texnologik - texnologik yangiliklarni (yangi texnologiya), yuqori daromadli ekin turlarini ko'paytirish, almashlab ekish, sara urug'lar bilan ta'minlanish, resurslar muvozanatini saqlanmasligi;

- ta'minot - resurslar, YOMM, Mineral o'g'itlar (NPK) turlari muvozanatining saqlanmasligi, ehtiyot qismlar bilan ta'min qilishning yo'lga qo'yilmaganligi, texnika ta'minotining yetarli emasligi[5];

- moliyalashtirish va kredit bilan ta'minlash - hozirgi vaqtda imtiyozli (3%) kredit bilan bir qism fermerlar ta'minlanmoqda (davlat buyurtmasi asosida paxta va g'alla yetishtirayotgan fermer xo'jaliklari), ammo bu kredit shu turdagi maxsulot yetishtirish uchun xarajatlarni faqat 30-35 foizinigina qoplamoqda, qolgan qismini tijorat banki krediti hisobiga yoki o'zining aylanma mablag'i hisobiga qoplash kerak.

Faqat bir qism fermerlargina aylanma mablag‘ga ega, qolganlari esa yuqori foizli tijorat banki kreditidan foydalanishga majbur, ammo ko‘pchilik hollarda garovga qo‘yadigan mulklari bo‘lmaganligi uchun bunday kreditdan har doim ham foydalana olmaydilar.

Natijada to‘lovlarni o‘z vaqtidaamalga oshira olmaslik hisobiga, bir qator agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida yoki umuman bajarilmay qolmoqda.



**1-rasm. Fermer xo‘jaliklari muammolari va ularni xal qilishda kooperativlarning ishtiroki<sup>154</sup>**

Shungdek qishloq xo‘jaliginingayni holatda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlashning biror bir tarmog‘i rivojlanishi ikkinchi tarmoq rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishiga asosiy e‘tiborni qaratish lozim. Chunki dorivor o‘simliklar xususan qizilmiya yetishtiruvchi fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan maxsulotlar, farmotsevtika va qandolatchilik sanoati korxonalarining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq holda takomillashib boradi. Bir so‘z bilan aytganda mahsulot yetishtirish va qayta ishlash tarmoqlarini uzviy va o‘zaro hamohang rivishda rivojlantirishni ta‘minlash hozirgi davrning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Bunday uzviylikni ta‘minlashda esa kooperatsion jarayonlarni rivojlantirish orqali tarmoqda kooperativlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy hamda huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

<sup>154</sup>Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ushbu maqsadlarda qizilmiya yetishtirish va uni turli darajada qayta ishlash kooperativlari faoliyati va ularni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadlar jihatidan baholaydigan bo‘lsak, dorivor o‘simliklar yetishtiruvchilar (fermer va dehqon xo‘jaliklari) uni tayyorlovchilar, qayta ishlovchilar, sotish sohasi korxonalari va xizmat ko‘rsatuvchi bo‘g‘in tuzilmalari uchun birday mafaatli hisoblanadi. Ammo ularning manfaatlarini o‘zaro mutanosib holda uyg‘unlashtirish, bir tizim doirasida tartibga solish o‘ta murakkab bo‘lib, ko‘plab tashkiliy-iqtisodiy jihatlarni bir-biriga moslashgan holda rivojlantirish uchun zaruriy asoslar yaratishni taqozo etadi[7].

Xorijiy tajribadan ma‘lumki, faoliyat ko‘rsatayotgan kooperativ tashkilotlari duch kelayotgan ko‘plab muammolarning manbai mulkiy huquqlarning zaif taqsimoti hisoblanadi. Birinchidan, boshqaruv va nazorat mexanizmlari transaksiyalar hajmi va kooperativga kiritilgan sarmoya miqdori bilan bog‘liq emas, ikkinchidan, kooperativdan chiqishda uning ishtirokchi sarmoyadagi o‘z ulushini bozor narxida sotishga imkoniyatiga ega emas – unga bo‘linmas jamg‘armalarga foydadan ajratmalar miqdorini o‘z ichiga olmaydigan pay qaytariladi, ko‘payib borayotgan paylar bo‘yicha to‘lovlar ularning shakllanishidan keyin uch yildan keyin amalga oshiriladi. Xolbuki bu qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining kooperatsiya faoliyatiga investitsiya kiritishga bo‘lgan qiziqishini kamaytirar ekan, kooperativlarning tashkiliy modellari mulkiy huquqlarni takomillashtirish yo‘nalishida o‘zgarishi lozim[6].

Tashkiliy model, bizning tushunishimizcha, bu xo‘jalik yurituvchi birlikning bozordagi xulq-atvorini belgilovchi va faoliyat ko‘rsatishning asosiy tamoyillarini amalga oshirishga imkon beruvchi muhim tashkiliy xususiyatlar majmuidir. Kooperativ biznesni tashkil etish modeli ham shunga o‘xshash to‘plam bilan belgilanadiki, unda: mulkchilik huquqlari tarkibi, boshqaruv va nazorat mexanizmlari va har bir kooperativ agentning uning faoliyatida ishtirok etish shakli kabi elementlar mavjud[8].

Kooperativ faoliyatni cheksiz bitimlar zanjiri va ko‘plab shartnomalar to‘plami deb hisoblaganimizda mulkchilik institutining ahamiyati aniq bo‘ladi. Qishloq xo‘jaligida o‘tish islohotlar jarayoni transaksiyalarni boshqarishning oldingi tartibini yo‘q qildi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari resurslar, yer va mahsulotlar bilan bitim tuzish uchun yangi bozor mexanizmlarini o‘zlashtirishga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu bitimlarni amalga oshirish natijalari asosan kooperativlarning faoliyati samaradorligi va xarajatlarini aniqlaydi, chunki ular aynan ishlab chiqaruvchilari tomonidan yakka tartibda amalga oshirishda mumkin bo‘lmagan yoki ruxsat bo‘lmagan bitimlarni tashkil etish uchun yaratilgan. Bu holat ushbu turkumning tasnifini va asosiy takribiy qismlarini aniqlashtirishni talab qildi.

## V. XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda ta‘minot qishloq xo‘jalik kooperativlari narxlar va resurslar sifati, sotish kooperativlari esa xaridorlar haqidagi ma‘lumotlarni qidirish bo‘yicha xarajatlarni amalga oshiradi – bularning barchasi tashqi bitim xarajatlari bo‘lib, barcha tashqi hamkorlar bilan o‘zaro aloqa qilish xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Tashkilot ichida shunday xarajatlarning yana bir turi borki, u internallarga tegishli bo‘lishi mumkin:

1. birinchidan, tashkiliy modelni yaratish, yuritish va o‘zgartirish xarajatlari;
2. ikkinchidan, tashkilot faoliyatining o‘zgaruvchan xarajatlari bo‘lib, ular orasida agentlik va kooperativ ichidagi texnologik zanjirning aloqasi orqali tovarlar va xizmatlarni jismoniy o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar. Kooperativning transaksiya xarajatlari tarkibini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ularning qiymati kooperativning qanday tashkil etilganligi, uning egalik qilish va boshqaruv tuzilishi qanchalik samarali ekanligiga bog‘liq.
3. Qishloq xo‘jaligi kooperatsiyani o‘rganishda mulkiy huquqlar, transaksiya xarajatlari tarkibi, rasmiy va norasmiy institutlarning kooperativ ichidagi agentlarning iqtisodiy xulq-atvori va rag‘batlarga hamda tashkilotning o‘zini bozor muhitidagi xulq-atvoriga ta’sirini o‘rganish imkoniyatlarida namoyon bo‘lgan yangi institutsional nazariyaning metodologik afzalliklari tadqiq etilgan.
4. Qishloq xo‘jaligi kooperativi tushunchasi aniqlashtirilib, u boshqa xo‘jalik faoliyati turlaridan o‘zining maqsadlari, mulkchilik tuzilishi, nazorat mehanizmlari va daromad taqsimoti usullari bilan farq qilishi aniqlanadi.
- 5.

#### IV. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5853-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 мартдаги «Мева-сабзавотчилик соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперациясини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4239-сон қарори.
3. Абдуллоев А.Ж. Қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари. дис. автореф. ... иқт. фан. номз. – Т.: ТИҚХММИ. 2019. – 53 б.
4. Kalmuratov B.S., Salieva A.D. The role of the organizational-economic mechanism in the development of innovation processes in agriculture// Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203 №1/1 (38) 2024 85-89 p
5. Абдурахманов У.Н. Управление затратами в аграрном производстве. – Ташкент: Узбекистан, 2022.
6. Кудратов И.А. Ликвидность и финансовая устойчивость сельскохозяйственных предприятий. – Ташкент: Изд-во "Фан", 2020.
7. Назаров Х.Р., Рахманов А.К. Особенности управления оборотными активами в аграрном секторе экономики Узбекистана. // Экономика и финансы. – 2020. – № 3. – С. 45-51.
8. А.М.Закимов. “Қизилмия етиштириш ва қайта ишлаш тизимида кооперацияни ривожлантиришнинг ташкилий иқтисодий асослари”// Автореферат-Нукус, 2023 <https://www.interaktiv.oak.uz/avtoreferat/3aO6794fO1.file>